

SHAHAR MADANIYATINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17926134>

Hafiza Abdullayeva Olimho'jaevna

*O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti,
"Madaniyat va san'at menejmenti" kafedrası dotsenti
hafiza05550@mail.ru*

Annotatsiya

Ushbu maqolada shahar madaniyatida hududlarning tutgan o'rne va ahamiyati keng tahlil qilingan. Turmush madaniyatining ilmiy konseptual masalalarini o'rganish, ijtimoiy munosabatlarni rivojlantirishda va shahar infratuzilmasini estetik jihatdan boyitishda muhim rol o'ynaydi.

Аннотация

В статье представлен комплексный анализ роли и значения территорий в городской культуре. Изучение научных концептуальных проблем социальной культуры играет важную роль в развитии общественных отношений и эстетическом обогащении городской инфраструктуры.

Abstract

This article provides a comprehensive analysis of the role and significance of territories in urban culture. The study of scientific conceptual issues of social culture plays an important role in the development of social relations and the aesthetic enrichment of urban infrastructure.

Turmush madaniyatining ilmiy konseptual masalalarini o'rganish shuni ko'rsatadiki, uning ikki ko'rinishi qishloq (aholisining) turmush madaniyati va shahar (aholisining) turmush madaniyati mavjud. Ular institusional tuzilishi, kundalik hayotda namoyon bo'lishi, insonning uy-xo'jaligi, oila va mahalla bilan munosabatlari turlichadir. Shaharlarning shakllanish negizi, genezisi qishloq bilan bog'liq. Biroq, zamonaviy shaharlar o'zi negizidan o'zib, alohida jihatlariga ega ijtimoiy-madaniy makonga aylangan. Xo'sh, shahar madaniyatining o'ziga xos xususiyatlari nimalarda aks etadi? Ular aholi turmush madaniyatiga qanday ta'sir qiladi? Avvalo shuni aytishimiz kerakki, "shahar", "shahar madaniyati" tushunchasi ilmiy iste'molga XVII asrda kiritilgan. Biroq, ularning ilk etimologik talqinlari Platon (er. avv. 428-347-yillar) asarlaridayoq uchraydi¹.

¹Бэкон Ф. Сочинения в двух томах. 2 том. – Москва: Мысль, 1976. С. 344.

U “polis”, “sivil”, “kultura” ko‘zlarini ishlatadi, ular mohiyatan bizning shahar haqidagi talqinlarimizga yaqindir. Ingliz faylasufi F. Bekon (1561-1626) asarlarida “shahar muhiti”, “shaharlik”, “shaharliklar xususiyatlari” kabi atamalarni ishlatadi. Bu atamalarida faylasuf shaharning o‘ziga xos jihatlarini, madaniyati va muhitini nazarda tutgan. Ammo bu shahar madaniyatining genezisi qadim davrlarda paydo bo‘lgan.

Er avv. VII-VI asrlarga borib taqalishini rad qilmaydi. Masalan, Turkmaniston hududidagi shahar talqiniga yaqin Qo‘ng‘ir tepa er. avv. IV ming yilliklarda shakllangan. Arxeologlarning ta’kidlashicha, Qo‘ng‘ir tepa yer aydoni 20-50 gektar bo‘lgan. Unda saroy, ibodatxona, saroy ayonlarining hovlilari, savdo-sotiq markazlari, zardo’shtiylar olovxonalari, shoh va uning oila a’zolari uchun maxsus dafnixonalar, mozaikali pannolar bo‘lgan. Arxeologlar xotin-qizlarning turli taqinchoqlarini, uy jihozlariga va xo‘jalik yuritishga oid buyumlarni topishgan.

Ular “Qo‘ng‘ir tepa arxitekturasini Assuriya va Bobil shaharlari bilan raqobatlasha oladi”, degan xulosaga kelishgan.

O‘zbek etnografi, professori I. Jabbarov esa Qadimgi Xorazmda shahar madaniyati yuqori darajada bo‘lganini, arxitektura esa chuqur o‘ylangan, zamonaviy loyihalarga o‘xshaydigan tarzda bo‘lganini qayd etadi Mavjud yondashuvlar va empirik kuzatuvlarimizdan kelib chiqib shahar madaniyatining quyidagi o‘ziga xosliklar borligini ko‘rsatamiz:

arxitektura va binolar estetikasi;

mexanizasiyalashtirilgan va avtomatlashtirilgan mehnat tarzi, ishlab chiqarish faoliyati;

intellektual mehnat;

aholi savodxonligining yuqoriligi;

mehnat taqsimotining yuqori darajada rang-barangligi;

transport-logistika infratuzilmasining keng rivojlanganligi;

ta’lim, tarbiya va maorif institutlarining ko‘pligi;

milliy tuzilmalari va qatlamlarning erkin aloqalari;

oliy ta’lim, ilm -fan muassasalarining mavjudligi;

madaniyat va san’at o‘choqlarining, rekreatsiya markazlarining rivojlangani;

rasmiy normalarning ma’naviy-axloqiy hayotda ustuvorligi;

shahar folklorining mavjudligi;

demokratik institutlarning faol ishlashi, ijtimoiy-siyosiy faollikni qo‘llab-quvvatlashi;

inson huquq va erkinliklarini ro‘yobga chiqarish imkoniyatlarining kengligi kabilardir. Mazkur yo‘nalishlar va imkoniyatlar keng shahar madaniyatini qamrab

olsa-da, ular turmush madaniyati uchun zarur muhit yaratadi. Turmush madaniyati ushbu muhit ta'sirida shakllanadi, undan ozuqa oladi².

Masalan, turmushdan foydalaniladigan suv, gaz va elektr chiroqlari shahar infratuzilmasidagi maxsus tarmoqlarga bog'langan, oila turmushidagi farovonlik ularning ko'rsatadigan xizmatlari tufaylidir. Arxitektura va binolar estetikasi shahar madaniyatining tashqi qiyofasidir.

Shaharga yaqinlashgan kishi avvalo binolar, ularning arxitekturasi, landschafti, maydonchalari, yo'l va yo'laklarni baholaydi. Chet ellik sayohlar ham shahar arxitekturasi va binolar estetikasini eslab qoladi, ular orqali shahar madaniyatini anglaydi.

Shahar arxitekturasi aholining zichligi, mobilligi va harakat, faoliyat, qiziqish doiralarning kengligini o'zida ifoda etadi. Shahar soni yildan-yilga o'sib bormoqda. Maxsus tadqiqotlar ko'rsatadiki, o'tgan asrning boshida dunyoda millioner shaharlar soni 200 ga yaqin edi, hozir ular soni 705 ga yetgan.

Bugun dunyoda 2 667 417 shaharlar bor. Global shaharlar soni 150 ga yetgan. Dunyo aholisining deyarli 50 foizi shaharlarda yashamoqda, 2050-yilga borib bu ko'rsatkich 70 foizga chiqadi. Shahar sonining oshishi bilan arxitektura, binolar estetikasi yaratish dolzarblashadi. Inshootlar va maydonlar shunchaki binolar emas, ular aholining maishiy va oilaviy ehtiyojlarini qondirish bilan birga, kishilarning badiiy-estetik dilini ham o'stirishi, ularda zavq, go'zal taassurot, yashash ishtiyoqini ham shakllantirishi darkor. Ko'p qavatli, mahobatli binolar, ulkan muassasalar, minglab, millionlab kishilarni sig'diradigan maydonlar, qator-qator avtomobillarni o'tkazadigan magistral yo'llar, 10-20 gektar yerlarga yoyilgan istirohat bog'lari, temir yo'llar, metro shahar madaniyatining atributlari sifatida qabul qilinadi.

Shahar kishisidagi mobillik shahar arxitekturasi va inshootlarini ham rang-baranglashtirmoqda. Shaharlarning dinamik tarzda o'sishi va kengayishi natijasida millioner, hatto global shaharlar yuzaga kelmoqda. Ushbu ijtimoiy-madaniy o'zgarishlar turmush madaniyatiga taalluqli yo'nalishlarni ekstensiv rivojlanishga turtki bo'lmoqda.

Mexanizasiyalashtirilgan va avtomatlashtirilgan mehnat tarzi qishloq aholisini shaharlarga jalb etayotgan omillardan biridir. Ma'lumki, qishloq hayot va mehnat tarzida qo'l mehnati asosiy qurol bo'lib qolmoqda. Yangi-yangi texnikalarning kashf etilayotgani hali dehqon mehnatining yengillashayotganini bildirmaydi, ushbu vositalarning juda qimmatligi, qishloq kishilarida ulardan foydalanish va boshqarish ko'nikmalarning yetarli emasligi qo'l mehnatini siqib chiqarolmayapti.

²Jabbarov I. O'zbek etnografiyasi. – Toshkent.: O'qituvchi, 1999. 109-122 b.

Qishloq oilalarida kir yuvish mashinasi, televizor, uy kinoteatri, shaxsiy avtomobillardan foydalanish an'anaga aylangan bo'lsa-da, qo'l mehnatidan foydalanish aslo kamaygan emas.

Demak, shahar madaniyatiga xos mehnat tarzining mexanizasiyalashgan va avtomotlashtirilgani qishloq kishisini o'ziga jalb qilayotgan sabablardan biridir. Tabiatga yaqinlik qishloq kishisi uchun qancha xarakterli bo'lsa, qo'l mehnatidan xalos bo'lishga intilish shahar uchun shunchalik xarakterlidir³.

Mutaxassislarning ta'kidlashicha, turmush tarziga robotlarning kirib kelishi xuddi televizor, uy kinoteatri, mobil aloqalar kabi oddiy hodisaga aylanadi, ular ovqat tayyorlash, xonalarni tozalash, idishlarni yuvish kabi ishlarni bajarib kishilarning bo'sh vaqtini oshishiga xizmat qiladi. Hatto ular jumboqli va ko'ngil ochar o'yinlarni uyushtirishi mumkin. Intellectul mehnat ana shu mexanizasiyalashtirish va avtomatlashtirish jarayonlarining ham avvali, ham natijasidir.

Og'ir qo'l mehnatini yengillashtirishi va inson izlanishlarini, say'-harakatlarini samarali qilishi intellektual mehnatning maqsadi hisoblanadi. Aqlu idrokka, ijodiy izlanishlar va tafakkur imkoniyatlariga tayanish intellektning asosiy belgisidir. Shahar madaniyati intellektga ishonadigan va undan yo'nalish oladigan hodisa, shuning uchun u o'ziga intellekti boy, ijodiy izlanishlarga tayyor, innovatsion g'oyalari bilan ijtimoiy rivojlanishga katta hissa qo'shadigan yosh aqlarni, kuchlarni o'ziga jalb etadi.

Qishloqlardan shaharlarga ko'chib kelayotganlar asosan yoshlar ekani ham shundandir. Jamiyat va davlatning intellektual salohiyatni qo'llab-quvvatlashga katta e'tibor ajratishi, uni oliy ta'lim, ilm-fan, innovatsion izlanishlar bilan bog'layotgani qalbi, ruhi yangilikka mushtoq qishloq yoshlarini shaharlarga yetaklaydi.

Ichki migratsiya bilan bog'liq bu jarayonlar qishloq turmush tarzi, tasavvurlari, ma'naviy-axloqiy tajribalarni shaharga olib o'tishini unutib bo'lmaydi.

Shahar madaniyati, urbanizatsiyasi va qulayliklari qishloq kishilari uchun etalon, maftunkor namuna bo'lib qolmoqda. Bu o'rinda shahar kishisidagi intellekt, aqlu idrok va kreativ izlannishlarga tayanish maftunkor fazilat tuyuladi. Inson omiliga bo'lgan e'tiborning oshishi avvalo intellektual salohiyatga bo'lgan e'tiborning oshishi bilan bog'liq.

Demak, shahar muhiti intellektni qo'llab-quvvatlaydi, shahar madaniyati ratsional talablariga tayanuvchi intellektlar yaratgan makondir. Qishloqlarda bu muhit agrotalablar doirasi bilan belgilansa, shaharlarda u rang-barang, plyuralistik, ba'zan esa ziddiyatli manfaatlarga ega, raqobatga qurilgan ijtimoiy harakatlar

³Лола А.М. Основы градоведения и теория города. – Москва.: Комкнига, 2005.

ifodasi sifatida keladi. Polifunksional xususiyatlarga ega multikulturatsiya va etnomadaniyatlar, millat va elatlar shahar madaniyatini jonli, serharakatchan, modernizatsiyaga moyil qilib turadi.

Shahar aholisining intellektual izlanishlarga moyilligi, asosiy ta'lim-tarbiya, oliy o'quv yurtlari, ilm -fan dargohlari, akademiyalar, ilmiy-tadqiqot markazlarining shaharlarda joylashgani shaharliklarning savodxonlik darajalariga ta'sir etgan. Bugun mazkur institutlar va markazlarning deyarli 85 foizi shaharlarda, 10-12 foizi tuman markazlari va shaharchalarda, qolgan 3 foizga yaqini qishloq markazlarida joylashgan.

Qishloq joylaridagi ilmiy markazlar va laboratoriyalar agrar soha muammolarini o'rganishga qaratilgan, shaharlardagi ilm, ta'lim, texnoparklar, innovatsiya markazlari rang-barangdir.

Hududlarning yashash sharoitini yaxshilash uchun urbanizatsiya xususiyatlari yana takomillashtiriladi. Shu maqsadda 18 ta katta, 22 ta o'rta va 80 ta kichik shaharlar o'rtasida transport-logistika tizimi va muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmasini rivojlantirish dasturlari amalga oshiriladi⁴. Bu omillar shahar aholisining bilim darajasiga ijobiy ta'sir ko'rsatib, shahar savodxonligini qishloqqa nisbatan yuqori qilib keladi. Shahar madaniyatiga mobillik, yangi-yangi axborotlar va ixtirolarga o'chlik xos.

Yangi-yangi axborotlar esa shahar kishisi ongi, tasavvurlari va savodxonligiga ta'sir etmay, unda ilmiy bilimlarga qiziqish uyg'otmay qolmaydi. Savodxonlik darajasi o'rta maktab ta'limi bergan bilimlar orqali shakllanadi. Bugun Yangi O'zbekistonda maktab ta'limi deyarli barcha bolalarni qamrab olgan. Bu jarayonlar xususida Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev: "hurmatli muallimlarimiz, jonkuyar maktab direktorlarini, soha faxriylarini el-yurtimizning tayanchi va suyanchi, deb bilamiz. Maktablar tizimini rivojlantirish uchun bundan buyon ham mablag'ni, imkoniyatni aslo ayamaymiz. Maktab bu hayot-mamot masalasi, kelajak masalasi. Uni davlat, hukumat va hokimlarning o'zi hal qilolmaydi. Bu butun jamiyatning ishi, burchiga aylanishi kerak", – degan edi.

Shunday bo'lsada shahar aholisining savodxonligi qishloq aholisidikiga ko'ra yuqori ekani kuzatiladi. To'g'ri, internet va onlayn ta'lim barcha uchun teng ochiq, shunday bo'lsa-da, yuqoridagi farqlar mavjud. Bizning fikrimizcha, bu avvalo turmush tarzi va madaniyatidagi farqlar bilan bog'liqdir. Bundan tashqari, shahar ijtimoiy-madaniy muhiti va infratuzilmasi qishloqdagidan keskin farq qiladi, bu esa aholi dunyoqarashi, tasavvurlari, savodxonligi shakllanishini belgilab berayotgan sotsial omillardir.

⁴ Mirziyoyev Sh. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. – Toshkent.: O'zbekiston NMIU, 2022. 416 b.

Shahar bilan qishloq savodxonligi qiyosiy tahlillarni taqozo qiladi. Biroq bunday tahlillar bizda ham, chet ellarda ham uchramaydi. Shahar aholisi savodxonligining yuqori ekanligi haqidagi fikr umumnazariy qarashlar va maqolalarda uchraydi. Mazkur fikr tadqiqotchilar tomonidan aksioma sifatida qabul qilingan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Beatley T. Biophilic Cities: Integrating nature into urban design and planning. Island Press. 2011.
2. Ulrich R. View Through a Window May Influence Recovery from Surgery. Science. -1984. - Vol.224(4647), - P.420-421.
3. Forman, R. T., and Godron, M. Landscape Ecology. New York: John Wiley and Sons. 1995.
4. To'laganov M., Karimov A. O'zbekiston shaharlarida yashil hududlarni rivojlantirishning o'ziga xos jihatlari. Ekologiya va Barqaror Taraqqiyot. - 2018. - Vol.2(4). - P.18-24.
5. O'zbekiston Respublikasi Ekologiya qo'mitasi. Ekohududlar rivoji hisobotlari. 2022.
6. Chiesura A. The Role of Urban Parks for the Sustainable City. Landscape and Urban Planning. - 2004. - 68(1). - P.129-138.
7. Gascon M., et al. Green Spaces and Health: A Systematic Review of the Evidence. Environmental Research, - 2015.- Vol.140. - P.110-117.